

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2025 Vol. 2

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 2

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotiblar: Ozoda Tojiboyeva
Sanjar Mavlonov

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ūşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova

Executive secretaries: Ozoda Tajibaeva
Sanjar Mavlanov

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.
103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Hamid Bozorov

Fonetik dialektizmlarning lingvopoetik xususiyatlari (o'zbek xalq ertaklari matnlaridagi dialektizmlar misolida).....6

Noorullah Altay, Tuyg'un Hussamuddin

O'zbek adabiy tilidagi ayrim muammoli so'zlar xususida.....20

Sabohat Bozorova

"Devonu lug'oti-t-turk" dagi ot bilan bog'liq leksika va maqollar.....36

Efsane Baxsheliyeva

Azərbaycan türkçesinde ve ingilizcede dost ve düşman kavramlarının dile yansması.....60

Nigar Babayeva

Azərbaycan türkçesinde ve İngilızcede kültürel kelimelerin (realiaların) çeviri süreci ve bu süreçte karşılaşılan zorluklar.....73

Adabiyotshunoslik

Shamsuddin Ortaq

Yıldızlı Geceler Romanında Babür ile Nevai'nin Edebi İlişki Kapsamının Yansması.....86

Fan. Ta'lim. Metodika

Madina Nazarova

Diplomatik diskursda *tema* va *rema* modellari.....99

San'at

Sabina Namazova

16 yüzyıl Tebriz ve Babür Minyatür Okullarının Yapısal-tipolojik paralelleri.....113

CONTENT

Linguistics

Hamid Bozorov

Lingvopoetic Features of Phonetic Dialectisms (examples of Dialectisms in the Texts of Uzbek Folk tales).....6

Noorullah Altay, Tuygun Hussamuddin

On some Problematic words in the Uzbek Literary Language.....20

Sabohat Bozorova

Vocabulary and Proverbs Related to Horses in the “Dīwān Lughāt al-Turk”36

Efsane Bakhsheliyeva

The Concepts of Friend and Enemy in Azerbaijani and English.....60

Nigar Babayeva

Translation Process of Cultural Words (Realias) in Azerbaijani Languages and English and the Challenges Encountered in this Process.....73

Literature

Shamsuddin Ortaq

The Reflection of Babur and Navai’s Literary Relationship in *The Starry Nights*.....86

Science. Education. Methodology

Madina Nazarova

Theme and Rheme Patterns in Diplomatic Discourse: Implications For Esp Pedagogy.....99

Art

Sabina Namazova

Structural-typological parallels of the 16th century Tabriz and Babur Miniature Schools.....113

“Devonu lug‘oti-t-turk”dagi ot bilan bog‘liq leksika va maqollar

Sabohat Bozorova¹

Abstrakt

Insonlarning hayot tarzi, dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari, e’tiqodi, ayrim hodisalarga munosabati madaniy o‘ziga xoslikning barcha unsurlarini qamrab olgan tilda o‘z aksini topadi. Tarix davomida hayvonlar insonlarning hayotida juda muhim o‘rin tutgan. Shu sababli deyarli barcha tillarda hayvonlar bilan bog‘liq so‘zlar faol qo‘llanadi. Turkiy tillarning lug‘at boyligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, hayvonlar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan lingvistik birliklarning juda ko‘p ekanligini sezish qiyin emas. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk”i turkiy xalqlarning hayot tarzi, urf-odatlarini, madaniyatini ham aks ettirgani uchun unda ijtimoiy hayotga oid turli ma’lumotlarni, xususan, turkiy xalqlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hayvonlar, jumladan, otlar haqidagi juda ko‘p qaydlarni uchratish mumkin. Shu bilan birga, ba’zi so‘zlar izohida “ot” komponentli maqollar misol sifatida keltirilgan va izohlangan ham.

Mazkur maqolada “Devonu lug‘oti-t-turk”dagi ot bilan bog‘liq so‘zlar va maqollar xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘oti-t-turk”, turkiy til, so‘z boyligi, maqol, hayvonlar, ot.

Kirish

Til millatning tarixiy xotirasi, madaniy tafakkuri va ijtimoiy ongining eng muhim ifodasi hisoblanadi. Har bir xalqning urf-odati, dunyoqarashi, hayot tarzi va qadriyatlari aynan tilda o‘z ifodasini topadi. Ayniqsa, qadimiy yozma manbalar tahlili til orqali o‘tmishdagi jamiyatlarning tafakkuri, turmush tarzi, qadriyatlar tizimini anglashga imkon beradi. Ana shunday bebaho manbalardan biri Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda yaratilgan “Devonu lug‘oti-t-turk”idir. Mazkur lug‘atda turkiy xalqlarning so‘z boyligiga emas, balki ijtimoiy hayoti, an’ana va urf-odatlarini, hayvonot dunyosiga

¹ Bozorova Sabohat Ramazonovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi.

E-pochta: sabohatbozorova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-2992-1789.

Iqtibos uchun: Bozorova, S. R. 2025. “Devonu lug‘oti-t-turk”dagi ot bilan bog‘liq leksika va maqollar”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 2: 36 – 59.

bo’lgan munosabati ham aks etgan.

“Ma’lumki, “Devonu lug’otit turk” leksikasi turfa bo’lib, unda qoraxoniylar davri turkiy xalqlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy, maishiy, madaniy, ma’rifiy hayotini aks ettiruvchi so’z boyligi o’z ifodasini topgan. Lug’atdan o’rin olgan leksik birliklarning aksariyati o’sha zamonda hayot kechirgan turkiy qabilalar, qavm va xalqlarning barchasi uchun mushtarak bo’lgan [Дадабоев 2017, 69].

Mahmud Koshg’ariy “... arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib o’zib borayotgan turk tili” [Кошғарий 1960, 46] deyish bilan bu davrda turkiy tilning nufuzi arab tili bilan teng ekani, hatto, undan yuqoriroq bo’layotganini poygadagi ikki uloqchi ot obrazi orqali tasvirlaydi. Jamiyatdagi til siyosatini bu qadar aniq, unutilmas tarzda tushuntirish uchun xalq hayotida beqiyos o’rni bo’lgan otning tanlanishi bejiz emas. Koshg’ariy lug’atning yaratilishi haqidagi fikrlarini davom ettirar ekan, yana ot bilan bog’liq o’xshatishdan foydalanadi: “Ilgarilab ketganlarga yetish uchun men (bu kitobimni) poygachi otdek ularning ketidan yubordim...” [Кошғарий 1960, 47].

“DLT”da turkiy tillar leksikasi naqadar boy ekanligi aniq ko’rinadi. Undagi hayvonlar, xususan, ot bilan bog’liq so’z boyligi diqqatga sazovor. Bu holat, o’z navbatida, otning turkiy xalqlar tarixiy-madaniy ongida muhim o’rin egallaganidan dalolat beradi. Lug’atdagi ot bilan bog’liq ma’lumotlar, she’riy parcha, ibora va maqollarning aksariyati so’zlarni izohlash, turkiy tilning nozik ma’no farqlarini ko’rsatish maqsadida keltirilgan. “DLT”da so’zlarni izohlash uchun keltirilgan maqollar “XI asr turkiy maqollar kulliyoti”; to’rtlik va baytlar esa “XI asr turkiy xalqlar she’riyati antologiyasi” deb hisoblanishi mumkin” [Ercilasun 2020, 7].¹

Asosiy qism

Otning turkiy xalqlar hayotida tutgan o’rni haqidagi ma’lumotlar qadimgi yozma manbalarda ham qayd etilgan. Jumladan, “DLT”da turkiylar uchun ulov, ish va jang quroli vazifalarini bajargan otning go’shti, suti va terisidan ham foydalanilgani bois ot bilan bog’liq bo’lgan juda ko’p tushunchalar mavjudligi haqidagi fikrlar, otning rangi, yoshi, jinsi, yurishi, xususiyatlari, egar-jabdug’i, parvarishi, vazifasi, ozuqasini ifoda etadigan ko’plab so’zlar keltirilgan. Turkiy tillarda ot bilan bog’liq so’z boyligining hayratlanarli darajada ekanligi e’tiborni tortadi. Bu holat turkiy xalqlarning, asosan, ko’chmanchi hayot tarziga

¹ Tarjimalar muallifniki.

ega bo'lgani, dehqonchilik, ovchilik, chorvachilik, hunarmandlik, harbiy faoliyat bilan shug'ullangani, ular hayotida hayvonlarning, xususan, otlarning muhim o'rin tutgani bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, "DLT"da xalqning dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari, tilning boyligi va tarixiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi o'ta muhim ma'lumotlar, mental xususiyatlarni o'zida jamlagan maqollar ham saqlanib qolgan. Reshid Rahmeti Arat maqollarni turkiy she'riyatning eng qadimgi shakllaridan biri, deb hisoblaydi [Arat 1965, 271]. Atsiz "DLT"dagi maqollarning bir qismi she'riy ekanini ta'kidlaydi: "She'riy maqollarning ba'zilari qadimgi she'rlarning xalq xotirasida qolgan misralari bo'lishi mumkin" [Atsiz 1943, 64]. "Talat Tekin "DLT"dagi maqollarga e'tibor qaratib: "Qadimgi turkiy she'riyatda misra oxirida qofiya bo'lmaganligi haqidagi fikrlarga qo'shilish qiyin", – deydi. Uning fikricha, turkiy she'riyatning qanday paydo bo'lgani haqidagi savolga maqollar orqali javob berish mumkin" [Ercilasun 2020, 33]. "DLT"dagi maqollar va ot bilan bog'liq so'zlarning hozirgi turkiy tillarda faol ishlatilishi ma'lum.

"DLT"dagi gippologik leksika

"Gippo... (fonetik varianti – *ippo...: ippodrom*) [yun. *hippos* – ot] – o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning otga aloqadorligini bildiradi... *gippologiya* [*gippo...+...logiya*] – ot, uning tashqi ko'rinishi va turlari, anatomiya va fiziologiyasi, uni ko'paytirish va parvarishlash, undan foydalanish kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi fan; otshunoslik" [Madvaliyev va boshqalar 2023, 146-147]. "DLT"dagi aksariyat gippologik terminlarning hozirgi turkiy tillarda bugungi kunda ham faol qo'llanishini kuzatish mumkin:

At

"*at* – ot; yo'g'on talaffuz qilinadigan *alif* bilan. Maqolda (shunday keladi): *Quş qanatin, er atin*. Ma'nosi: "Qush qanoti bilan, er oti bilan" [Koshg'ariy 2017, 28]¹; *Atqa ot bergil* – otga o't [xashak] bergil [28]; *atliğ* (atlig') *atliğ er* – otliq er [52].

"DLT"da *at* zoonimi quyidagi so'z birikmalari va gaplar tarkibida ham uchraydi:

¹ Misollar mazkur nashrdan olindi: Koshg'ariy, M. Devonu lug'ati-t-turk (Turkiy so'zlar devoni). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2017. Keyingi o'rinlarda sahifani ko'rsatish bilan cheklanildi.

№	So‘z birikmasi	“DLT”dagi izohi	Asos
1	<i>ulduq at</i>	taqasiz ot. Boshqa hayvonlarga nisbatan ham ishlatiladi[53].	Tashqi belgilar
2	<i>aziġliġ at</i>	ozig’ini yorgan ot va ozig’ini yorgan har qanday hayvon [73].	Baholovchi / holat
3	<i>qiz nāġ</i>	qimmatbaho narsa; masalan, <i>bu at qiz aldim</i> – bu otni qimmat narxga oldim [134].	Baholovchi/ narx
4	<i>bulaq at</i>	bo‘yi qisqa, usti keng ot [152].	Tashqi belgilar
5	<i>sešug at</i>	(boylog‘idan) yechilgan har qanday narsa; <i>sešug at</i> – yechilgan ot [156].	Holat / harakat
6	<i>kewal at</i>	yo‘rg‘a, yuramol; <i>kewal at</i> – yo‘rg‘a ot [159].	Harakat turi
7	<i>salġa at</i>	[<i>salġa</i> (salg‘a)] <i>salġa at</i> – boshi qattiq ot [170].	Tashqi belgi
8	<i>ketki at</i>	[<i>ketki</i> (ketki)] <i>ketki at</i> – orqasi keng, beli cho‘kkan ot [172].	Tashqi belgi
9	<i>at bošuġu</i>	bo‘shatiladigan vaqt, bo‘shatish, yechish vaqti] <i>at bošuġu boldu</i> – otni va boshqa hayvonlarni arqondan bo‘shatish vaqti bo‘ldi[178].	Holat/vaqt
10	<i>at tušaġu</i>	bog‘lanadigan, tushovlanadigan vaqt] <i>at tušaġu boldu</i> – ot va boshqa hayvonlarning oyog‘ini arqonga bog‘laydigan, tushovlaydigan vaqt bo‘ldi [178].	Holat/vaqt
11	<i>ozġan at</i>	<i>ozġan at</i> birikmasidagi <i>ozġan</i> so‘zi <i>ozaġan</i> (hammadan o‘zib ketadigan) ma‘nosidadir...[187].	Harakat bahosi
12	<i>böktäl at</i>	orqa sag‘risi keng ot [191].	Tashqi belgi
13	<i>keršägü at</i>	kurak suyagining oldida yag‘iri bor ot [194].	Tashqi belgi
14	<i>közätmiš at</i>	kuzatilgan, qaralgan ot [308].	Holat/ nazorat
15	<i>at közätgü oġur</i>	otga qaraydigan vaqt. Boshqasi ham shunday [309].	Holat/vaqt
16	<i>yazuq at</i>	boshvoqlanmagan, bog‘idan yechilgan ot. Bog‘lovdan yechilgan har qanday narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi [328].	Holat/ erkinlik

Yund

Mahmud Koshg‘ariy turkiylar tilida *at* bilan birga *yund* so‘zi ham qo‘llanganini alohida ta‘kidlaydi va misollar keltiradi: “*Yund* – ot. Bu so‘z “tuya” kabi birlikka ham, ko‘plikka ham qo‘llanaveradigan

turdosh otdir; *yund eti yipar* – ot go'shtidan yoqimli hid keladi, demakdir. Go'sht qaynatilib, qozondan olib qo'yib sovutilgach, undan yoqimli bir hid keladi" [325].

Yund – turklarning o'n ikki yilidan birining oti. Uni *yund yili* deyiladi, "Ot yili" demakdir" [325].

Yilqi

"DLT"da hozirgi o'zbek tilida otlar podasiga nisbatangina qo'llanadigan *yilqi* terminining dastlabki lug'aviy ma'nosi haqidagi qayd mavjud: *yilqi* (yilqi) – *to'rt oyoqli hayvonlarni atovchi turdosh ot* [334]. Til taraqqiyoti natijasida so'zda yuzaga kelgan ma'no o'zgarishi sababli "yilqi" deganda otlar podasi ko'z o'ngimizga keladi. "Bu ot asli 'keng o'tloqda erkin harakatlanib yuruvchi hayvonlar' ma'nosini anglatgan; ma'noda torayish voqe bo'lib, 'otlar podasi' ma'nosini anglata boshlagan..." [Рахматуллаев, Қодиров, 1997, 79].

Mahmud Koshg'ariy zoonimlar, jumladan, *yilqi* so'zining turli holat va xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar bilan birikib kelishiga alohida e'tibor bergan. Quyidagi so'z birikmalarida hayvonning holati, yoshi, tashqi belgisi bilan bog'liq so'zlar ishtirok etganini ko'rish mumkin:

So'z birikmasi	"DLT"dagi izohi
<i>öküş yilqi</i>	qaysar ot, sarkash hayvon [38]
<i>aδma yilqi</i>	yoshligi uchun yuk ortilmay, o'z holiga qo'yib qo'yilgan hayvon [65]
<i>boš yilqi</i>	bo'sh, erkin yilqi [135]
<i>tüläk yilqi</i>	tullagan hayvon. Mollar qishda junini to'kib, yangi jun chiqarsa, <i>tülädi</i> deyiladi [165]
<i>bašlağ yilqi</i>	bo'sh, boylanmagan, o'z boshiga yurgan hayvon [183]
<i>tarğil yilqi</i>	orqasida sepkilga o'xshash oq-qora chizig'i bor hayvon. Otdan boshqa mollarning hammasiga ham shu so'z qo'llanadi [191]

Aδğir

(Donishmand) shunday degan:

*Sewünmägil yund, ügür, aδğir, anin,
Altun-kümüš bulnapan, aği, tawar.*

Aytmoqdaki: Yilqi, nasldor ot, ayg'ir va nor tuyalar, shuningdek, oltin-kumush va ipakli kiyimlar topganingga suyunma, o'zingga hunar va san'at orttir [253].

Qisraq

"*qisraq* (qisraq) – yosh baytal. O'g'uzlarda har qanday

baytalga nisbatan aytiladi. Maqolda (shunday kelgan): *Qiz birlä küräsmä, qisraq birlä yarişma*. Ma’nosi: “Qiz bilan o’ynashma, chunki ular kuchli va seni yengadi. Yosh qisir biya bilan poyga qilma, u ayg’irdan ko’ra kuchlidir, u ham sening ustingdan g’alaba qiladi (seni yengadi)”. Bu maqol xoqoniya qizlaridan biri Sulton Mas’udning nikoh kechasi o’z erini oyog’i bilan chalib yiqitganidan keyin xoqoniyalarda yuzaga kelgan” [188]; *qisir* (qisir) – tug’maydigan xotinlarga va hayvonlar-ga qo’llanuvchi so’z. “Qaysar baytal” ma’nosidagi *qisir qisraq* iborasi ham shundandir [147]; [*qulnači* (qulnachi)] *qulnači qisraq* – bo’g’oz mol” [194]. “O’g’uzlar har qanday baytalni nomlash maqsadida *qisraq* zoonimidan foydalanganlar, turklar bu leksik birlikni faqat yosh baytalga nisbatan ishlatishgan” [Дадабоев 2017, 70].

“DLT”da turli yoshdagi yoki vazifasiga ko’ra farqlanuvchi hayvonlar nomlari alohida so’zlar bilan ifodalangan:

Qulun

“*qulun* (qulun) – ayg’ir, toy” [162].

Sip

“*sip* (sip) – ikki yoshli toychoq” [132].

Tosun

“*tosun* (to’sun) – toychoq, hali minilmagan toy” [161].

Köçüt

Muallif “ot”, “ulov” ma’nosini ifodalovchi *köçüt* (ko’chut) so’zi xususida ham ma’lumot beradi: “*köçüt* (ko’chut) – ot, ulov” [144].

Otlarning xususiyatlari va vazifalariga ko’ra nomlanishi

“DLT”da otlarga xos bo’lgan xususiyatlar va vazifalar asosida berilgan nomlar ham uchraydi. Bu nomlar otlarning jismoniy xususiyatlari, fe’l-atvori, vazifasi yoki ishlatilish sohasiga qarab berilgan:

Otga berilgan nom	“DLT”dagi izohi
<i>arqun</i>	Yovvoyi otdan qochgan xonaki baytal bolasi; u poygalarda eng chopqir ot [56]
<i>igiş</i>	Bo’ysunmaydigan, qaysar ot, hayvon [62]
<i>munduz yoriğa at</i>	Yolg’iz yo’rg’asi bor, chopishda tengi yo’q ot [182]
<i>ulağ</i>	Bek buyrug’i bilan yuruvchi pochtaoning ma’lum bekatlarda ayriboshlab miniladigan oti [62]

<i>čuvğa</i>	Tezyurar xat tashuvchining yo'lda oladigan oti, ma'lum manzilga yetganda uni qoldirib, boshqasini minadi [170]
<i>tuğrağ</i>	Shoh tomonidan jang vaqtida askarlarga berilib, tinchlikda qaytarib olinadigan ot [184]

Otlarning parvarishi bilan bog'liq fe'llar

“Devonu lug'otit turk”da yo'l-yo'lakay berilgan geografik ma'lumotlar ham diqqatga sazovor. Mahmud Koshg'ariy o'z asarida shuncha keng va katta territoriyada o'sha davrda bo'lgan hamma shahar va qishloqlardan, dengiz va ko'llardan, ularning tarixidan, jug'rofiy mavqeyidan, ularda yashovchi xalqlardan, hatto, ba'zan unda bor hayvon va o'simliklardan ham ancha keng ma'lumot beradi. Bu jihatdan asarning qiymati benihoyat ulug' va tengsizdir” [Кoшғарий 1960, 34]. “DLT”da so'zlar izohlanar ekan, aksariyat hollarda ot bilan bog'liq so'zlar misol sifatida keltiriladi. Bularning ba'zilari faqat otga nisbatan ishlatilsa, qolganlari boshqa holatlarda ham qo'llanadi. Koshg'ariy bunday so'zlarning qanday vaziyatlarda ishlatilishiga aniqlik kiritadi:

[*učdi* (uchdi) – uchdi]... *er atdan quđi učdi* – kishi otdan yiqilib tushdi [80].

[*ešdi* (eshdi)] ... *atliğ ešdi* – otliq chopdi, o'zdi [81].

[*učurđi* (uchurdi) uchirdi] ... *ol anı attin učurđi* – u uni va boshqa narsalarni otdan tushirdi (*učurur, učurmaq*) [84].

[*isirdi* (isirdi) – qopdi, tishladi] *it isirdi* – it va boshqa narsalar qopdi. Maqolda (shunday kelgan): *it isirmas, at tepmäs temä*. Ma'nosi: “It qopmaydi, ot tepmaydi dema”. Chunki bu odat ularning tabiatida bordir (*isirur, isirmaq*) [85].

[*ačindi* (achindi)] *er atin ačindi* – kishi otiga g'amxo'rlik qildi, yem-xashakka to'ydirdi [92].

[*esindi* (esindi) – tortib uzayozdi] *at esindi* – ot qutulish uchun arqonni tortib uzayozdi [92].

[*igandi* (igandi) – sarkashlandi] *at igandi* – ot va boshqa jonivorlar bo'ysunmadi, sarkashlik qildi (*igänür/igänmäk*) [93].

[*ikandi* (ikandi) – bo'g'oz bo'ldi] *qisraq ikandi* – baytal bo'g'oz bo'ldi [93].

[*atatti/atitti* (atatti/atitti) – ot bo'ldi] *tay atatti/atitti* – toy ot bo'ldi, toy ulg'ayib, otlar qatoriga o'tdi, ot ataldi... Maqolda (shunday kelgan): *Tay atatsa/atitsa, at tinur, oğul erädsä, ata tinur*. Ma'nosi: “Toy ulg'aysa, ot tinadi [ya'ni ot minishdan qutqariladi], o'g'il o'ssa, ota tinadi. (Shoir) shunday degan:

Tegür meniñ sawimni bilgälikä ay,

Tinur qali atatsa/atitsa, qisraq sani tay.

Aytmoqdaki, Mening so‘zimni yetkaz, aqllilarga aytgin, agar toy bolasi ot bo‘lsa, otlar qatoriga kirsan, baytal tinadi [94].

“Mahmud Koshg‘ariy “DLT” asarida lug‘at maqolasi sifatida ishlatgan so‘zlarni ba‘zan maqollar yordamida izohlaydi. XI asrdagi turkiy tilda qo‘llangan maqollarning ma‘nolari bilan birga “Devon”dan o‘rin olishi lug‘atning ma‘no jihatdan boyishiga xizmat qiladi va lug‘at maqolasi sifatida keltirilgan so‘zlarning ijtimoiy hayotda gavdalangan konkret dunyoga oid izlarini ochib beradi” [Duruko‘glu 2020, 473]. “DLT”dagi maqollarda ham xalqning dunyoqarashi, qadriyatlarini, ijtimoiy hayotdagi tartib, qoidalar o‘z ifodasini topgan:

[*anutti* (anutti) – u yovga qarshi qurol-yarog‘ hozirladi. Har bir tayyorlangan narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (*anutur/anitur/anutmaq*). Maqolda (shunday kelgan): *Tolum/tolim anutsa, qulun bulur, tolum unutsa, bolun bulur*. Ma‘nosi: “Yovga (qarshi) qurol hozirlagan kishi qulun [toy] topadi, qurol hozirlashni unutgan kishi asir bo‘ladi”. Bu maqol oldindan hozirlik ko‘rish kerak ekanligiga undab aytiladi [96].

[*atgardi* (atg‘ardi)] *ol meni atgardi* – u ot va boshqa narsalarga minishimga ko‘maklashdi va mindirdi (*atgarur/atgarmaq*) [100].

[*otgardi* (o‘tg‘ardi) – o‘tlatdi] *at otgardi* – u ot va boshqa hayvonlarni o‘tlatdi. (*otgarur, otgarmaq*) [100].

[*argurdi* (arg‘urdi) – charchatdi] *ol atin argurdi* – u otini charchatdi (*argurur, argurmaq*) [100].

[*isrishti* (isrishti) – tishlashdi, to‘qnashishdi] *ikki adg‘ir birla isrishti* – ikki ayg‘ir va boshqa hayvonlar bir-biri bilan tishlashdi (isrisur, isrismaq). Ko‘maklashish va bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi [103].

[*ewrishti* (evrishti) ... *ol anin qachmish atig ewrishti* – u uning qochgan otini qaytarishga ko‘maklashdi... [103].

[*oqrasdi/oqrusdi* (o‘qrashdi/o‘qrushdi) – kishnashdi] *yund qamuq oqrasdi/oqrusdi* – (o‘tloqni ko‘rib) butun otlar podasi kishnadi (*oqrasur, oqrasmaq*). Shoir shunday degan:

*Yashin atip yashnadi,
Tuman turup tushnadi.
Adg‘ir, qisir kishnadi,
Ug‘ur alip oqrasur.*

Ko‘klamni tasvirlab aytmoqda: yashin yashnadi, bulut qo‘zg‘alib hayajonga tushdi. Ayg‘ir va biyalar ko‘klam kelganidan

zavqlanib, shodlik bilan kishnashdi va yayrab uyur olishdi, nasl tarqatishdi [Yashin yashnadi, bulut qo'zg'alib, qaynadi. Ayg'ir, biyalar kishnashdi. Uyur olib shodlanishmoqda] [103].

[*igläšdi* (iglashdi)] *yilqı ariğ igläšdi* – yilqi va boshqa hayvonlar kasallandi (*igläšür/igläšmäk*) [105].

[*artildi* (artildi) – ortildi] *er at üzä artildi* – kishi ot ustiga ortildi, tashlandi. Ya'ni kishi yarmi otning bir yoniga va yarmi otning ikkinchi yoniga tashlangani holda ortildi...[106].

[*iskändi* (iskandi) – yuldi, sug'urdi] *at ot iskändi* – ot oz-ozdan o't chimdidi. Bu so'z jun yoki maysa o'tni yulishga ham qo'llanadi (*iskänur/iskänmäk*) [109].

[*atlandi* (atlandi)] *er atlandi* – kishi otga mindi; *ol tağqa atlandi* – u tog'ga chiqdi (o'g'uzcha). Har narsaga chiqishga ham shu so'z qo'llanadi (*atlanur/atlanmaq*) [109].

[*üdländi*(udlandi) – kuyukdi] *yilqı üdländi* – yilqi kuyukdi va ayg'irni istadi (*üdlänür/üdlänmäk*) [110].

[*ağnatti* (ag'natti) – ag'angatdi] *ol atin ağnatti* – u otini va boshqa uy hayvonlarini tuproqqa ag'angatdi [113].

[*uldidı* (uldidi)] *at uldidı* – ot va boshqa hayvonlar toqatsiz bo'ldi (*uldir/uldımaq*) [115].

[*oqradi* (o'qradi) – kishnadi] *at oqradi* ot ovqat yeyish vaqtida kishnadi (*oqrar, oqramaq*) [115].

[*axsadi* – oqsadi] *at axsadi* – ot va boshqa jonzotlar oqsadi (*axsar/axsamaq*) [116].

[*alisadi* (alisadi) – olmoq istadi] *ol at alisadi* – u ot va boshqa narsalarni sotib olmoqni istadi, sotib olmoqchi bo'ldi (*alisar, alisamaq*) [117].

[*uxšadi* (uxshadi)] *at uxšadi* – ot uxladi. Bu so'z otga xosdir, boshqalarga qo'llanilmaydi. Bu so'z yamak, yabaqu va ko'pchilik sahrolilar so'zidir (*uxšar/uxšamaq*) [118].

[*otladi* (o'tladi) – o'tladi] *at otladi* – ot va boshqa hayvonlar o'tladi (*otlar, otlamaq*) [118].

[*atlandi* (atlandi) – otga mindi] *ol at atlandi* – u otga mindi (*atlanur, atlanmaq*)

(Shoir) shunday degan:

*Yilqı yarın(yazın?) atlanur,
Otlap anin etlanür.
Beglar semüz atlanur,
Sewnüp ügür isrişur.*

Ko'klamni ta'riflab aytmoqda: Ko'klamda hayvonlarning ahvoli yaxshilanadi, et olib semiradilar. Beklar semiz ot minishlari

mumkin bo’ladi. Yilqilar sevinishib, bir-birlarini tishlashadi [119].

[*ağnadi* (ag’nadi) – ag’anadi] *at ağnadi* – ot tuproqqa va boshqaga ag’anadi; er ağnadi – kishi so’zlashda tutildi (ağnar, ağnamaq). Bu so’zning asli *ğunnalidir* [120].

[*ağirlandi* (ag’irlandi) – hurmatlandi] ... *ol bu atni ağirlandi* – u bu otni qimmatbaho sanadi (*ağirlanur/ ağirlanmaq*). Bu so’z biror narsaning og’ir va vazmin ekanligi ma’nosida ham qo’llanadi [121].

[*oğurlandi* (o’g’urlandi) –] ... *at oğurlandi* – taqdim qilingan otning qiymati berildi (o’g’uzcha) (*oğurlanur, oğurlanmaq*) [121].

[*ügürländi*(ugurlandi)] *yund ügürländi* – ot to’dasi ayg’irli bo’ldi(*ügürlanür, ügürlänmäk*)[121].

[*arpalandi* (arpalandi) – arpali bo’ldi] *at arpalandi* – ot va boshqa hayvonlarga arpa berildi (arpalanur, arpalanmaq) [123].

[*otlandi* (o’tlandi)] *at otlandi* – ot yurish natijasida qizishdi... (*otlanur, otlanmaq*) [123].

[*eđärlädi* (edarladi) – egarladi] *at eđärlädi* – kishi ot va boshqa hayvonlarni egarladi (*eđärlär, eđärlämäk*) [124].

[*uluğsadi* (ulug’sadi)] *er atta uluğsadi* – kishi otning kattasini istadi. Bu so’z har bir narsaning kattasini istash ma’nosida ham qo’llanadi (*uluğsar, uluğsamaq*) [125].

[*aziğladi* (azig’ladi)] *tonuz atiğ aziğladi* – to’ng’iz qoziq tishi bilan otni urdi va yaraladi... (*aziğlar, aziğlamaq*) [125].

[*ađğirlandi* (adg’irlandi) – ayg’irlandi, ayg’irga aylandi] – *tay ađğirlandi* toy ayg’irlandi, ayg’ir qiliqli bo’ldi. Baytalning ayg’irli bo’lishiga ham shu so’z qo’llanadi (*ađğirlandi ađğirlandi*) [129].

[*arpaladi* (arpaladi) – arpa berdi, arpa bilan boqdi] *ol atin arpaladi* – u otga arpa berdi, arpa bilan boqdi, arpa yedirdi (*arpalar, arpalamaq*) [130].

[*tikti* (tikdi)] *atiğ yilan tikti* – otni va boshqa narsani ilon chaqdi. Chayon chaqishiga ham shu so’z qo’llanadi [214].

[*čekdi* (chekdi) – qon oldi] *ol atin čekdi* – u otning tomiridan qon oldi (*čekar, çekmäk*) [215].

[*köndi* (ko’ndi) – tindi, dam oldi] *tosun at köndi* – o’ynoqi sho’x ot tindi... (*könär, könmäk*) [217].

[*mündi* (mundi) – mindi] *er at mündi* – kishi ot va boshqa narsaga mindi (*münär, münmäk*) [217].

Shuningdek, *at sürdi* – ot surdi gapidagi *sürdi* fe’lining masdari ham ingichka *sürmäk* shaklidir... [220].

at suwğar – otni sug’or, *meni uđğur* – meni uyg’ot gaplaridagi *suwğar, uđğur* fe’llari to’rt harfli fe’llardir. Buyrug’i *uđğurğil, suwğarğil* shaklida qo’llanadi. Bu olti harfli buyruqlar bobiga kiradi

[221].

[*tuwurdī* (tuvurdi) – chimirdi] *at qulaqin tuwurdī* – ot qulogʻini chimirdi (Bu ot biror narsadan taʼsirlanganda ikki qulogʻini tikraytirishidir) (*tuwurar, tuwurmaq*) [229].

[*qatardī* (qatardi) – qaytardi] *ol atigʻ qatardī* – u otni qaytardi; *yaḡī qatardī* – yovni va boshqalarni qaytardi (*qatarur, qatarmaq*)... [229].

[*kösürdü* (koʻsurdu) – tushovladi] *ol atigʻ kösürdü* – u ot (ning ikki oyogʻini) tushovladi (*kösürür, kösürmək*) [230].

[*tüşürdi* (tushurdi) – tushirdi] ... *men anī attin түşürdüm* – men uni otdan tushirdim, otdan tushirib qoʻydim. *Tüşürmək* ham shunday (*tüşürür, түşürmək*) [230].

[*buqurdī* (buqurdi) – tushirdi, pastga urdi] *ol at tegirindä(n) buqurdī* – u ot va boshqa narsalarning narxini pastga urdi. Har narsani oʻz joyidan pastga tushirilishiga ham shu soʻz qoʻllanadi (*buqurur, buqurmaq*) [231].

[*kölarđi* (koʻlardi)] *at kölarđi* – otning qorni damlanib, shishganidan chalqancha yotdi (*kölarür, kölarmäk*). Maqolda (shunday kelgan): *Er oḡli muḡadmas, it oḡli kölarmäs*. Maʼnosi: Itning bolasi doimo otga oʻxshab chalqancha yota olmaganidek, odam bolasi doim iztirobda qolmaydi, biror yumush bilan undan qutuladi [232].

[*sočušđi/ sočišđi*/(soʻchushdi/ soʻchishdi) – choʻchishdi, sakrashdi] *atlar qamuḡ sočušđi/ sočišđi* – ot va boshqa hayvonlar choʻchib tushishdi (*sočušur/ sočišur/ sočušmaq/ sočišmaq*) [234].

[*tirāšđi* (tirashdi) – tiradi] *yilqī tuyaḡin tirāšđi* – yilqilar yurish qiyinligidan oyogʻini tiradi, yurishdan toʻxtadi (*tirāšür, tirāšmək*) [236].

[*sürüşđi* (surushdi) – chopishdi] *aḡḡir qisraq birlä sürüşđi* – aygʻir qisir baytalni tishlab oʻynashdi. Bu aygʻirning baytalga irgʻish istaganida boʻladi [236].

[*qališđi* (qalishdi) – sakrashdi, irgʻishdi] *at aḡḡir qališđi* – aygʻirlar, biyalar sakrashdi (*qališur, qališmaq*). Shuningdek, xalqni tashlab ketishda bahslashgan ikki kishiga ham shu soʻz qoʻllanadi [240].

Uchinchi, bu feʼllardagi *šin* harfi *lām* bilan birlikda ismga qoʻshilib, otish, garov, qimorda oʻrtaga qoʻyilgan narsani bildiradi: *oynadim atlašu* – otdan qimor, garov oʻynadim, oʻrtaga ot tikib (qoʻyib), qimor, garov oʻynadim, demakdir... [242].

[*sürüldi* (suruldi) – surdi, boshini burmay chopdi] *at sürüldi* – ot surdi [244].

[*čaqildi* (chaqildi)] *söz qulaqqa čaqildi* – so’z quloqqa eshitildi (*čaqilur, čaqilmaq*).

(Shoir) shunday degan:

*Yügürdi kewal at,
Čaqildi qizil ot.
Küyürdi arut ot,
Sačrap anin örtanür.*

Yovning otini ta’riflamoqda: Uchar ot chopganda, tuyoqlaridan qizil o’t chaqnadi. Undan chaqnagan o’t (sahro) xashaklarini kuydirib yubordi [247-248].

Kamran Aliyev turkiy she’riyatning paydo bo’lishini otning harakatlariga bog’laydi. Uning fikriga ko’ra, turkiy she’riyatning badiiy manbayi, turkiylarning ajralmas bir parchasi bo’lgan otdir. She’riy qolip otning yurishiga qarab shakllantirilgan. Otning yo’rg’alab yurishi baytni, shamoldek yelishi esa to’rtlikni yuzaga keltirgan [Aliyev 2018, 32-33].

[*münüldü* (munuldi) – minildi] *at münüldü* – ot va boshqa narsalarga minildi (*münülür, münülmäk*) [249].

[*tepindi* (tepindi) – tepindi] *er atin tepindi* – kishi otini tepindi. Har narsani oyoq bilan urishga [niqtashga], harakatlantirishga ham shu so’z qo’llanadi (*tepinür, tepinmäk*) [250].

[*boğundi* (bo’g’undi) – bo’g’ildi, bog’landi] *at boğundi* – ot va boshqa hayvonlar bo’g’ildi, bo’g’ilib o’ldi (*boğunur, boğunmaq*) [250].

[*torundi* (to’rundi) – o’ynoqladi] *at torundi* – ot va boshqa narsalar o’ynoqladi (*torunur, torunmaq*) [251].

[*tušandi* (tushandi) – chalishdi] *er ađaqi tušandi* – kishining oyoqlari qo’rquvdan o’ralishdi. Maqolda (shunday kelgan): *Arslan kökräsä at ađaqi tušanir*. Ma’nosi: “Arslon o’kirsä, otning oyoqlari chalishadi, tushovlanadi”. Bu maqol o’zidan kuchli kishi bilan qarshi kelib, yaqiniga borganda titrab, orqasiga qaytish ma’nosida qo’llanadi (*tušanur, tušanmak*) [252].

[*čapindi* (chapindi) – qamchiladi] *er atin čapindi* – er otini qamchiladi [252].

[*čalindi* (chalindi) – oriqladi] *at čalindi* – yem-xashak yomonligidan ot oriqladi [252].

[*čilandi* (chilandi) – terladi] *at čilandi* – ot terladi [253].

[*satindi* (satindi) – sotadigandek ko’rindi] u kishi otini sotadigandek ko’rindi (*satinur, satinmaq*) [253].

[*sočitti* (so’chitti) – cho’chitdi] *ol atig sočitti* – u ot va boshqa hayvonlarni cho’chitdi, qo’zg’atib yubordi (*sočitur, sočitmaq*) [302].

[*čilatti*(chilatti) – terlatdi] *ol atiğ čilatti* – u otni terlagunicha choptirdi [305].

[*yağutti* (yag'itti) – yaqinlashtirdi] *ol atiğ menä yağutti* – u menga otini va boshqalarni yaqinlashtirdi (*yağutur, yağutmaq*).

(Bilimli) shunday degan:

*Kelsä ümä tüşürgil,
Tinsun aniñ aruqluq.
Arpa, saman yağutğil,
Bulsun atı yaruqluq.*

Aytmoqdaki: Uyingga mehmon kelsa, uni qo'ndir, u hordiq chiqarib, dam olsin. Otiga arpa, somon sol, oti yorug'liq rohatidan bahra olsin [307].

Ishning ikki yoki undan ortiq kishi orasida bo'lganini, yordam yoki bahslashish asosida voqe bo'lgani istalsa, bu xil ma'no farqlovchi fe'l o'zagiga *šin* harfi orttirib yasaladi. Chunonchi, *ol menä tariğ aritişdi* – u menga tariq tozalashda ko'maklashdi; *ol menä at közätişdi* – u menga ot boqishda ko'maklashdi yoki men bilan ot boqishda bahslashdi. Boshqasi ham shunday [309].

[*quyutti/quyitti* (quyutti/quyitti) – hurkitdi] *ol atiğ quyutti/quyitti* – u otini hurkitib yubordi (*quyitur, quyutmaq/quyitmaq*) [310].

[*köklatti* (ko'klatti) – to'qitdi, to'qittirdi] *ol eđär yaliğın köklatti* – u egar yonlarining qayishini to'qitdi (*köklätür, köklät-mäk*). Bu so'zning *kökdät*di shakli ham bor [311].

[*sürçitti* (surchitti) – surkatdi] *ol atin sürçitti* – u otini toydirdi, qoqiltirdi. Otdan boshqa narsalarga ham shu so'z qo'llanadi (*sürçitür, sürçitmak*) [311].

[*tigrätti* (tigratti) – pishqirtirdi, kishnattirdi] *ol atin tigratti* – u otini pishqirtirdi, kishnab yuradigan qildi... Bu so'zning *ğaynli* varianti ham bor (*tigrätür, tigrätmäk*) [312].

*sekiritti* – sakratdi] *ol atin ariqtin sekiritti* – u otini ariq va boshqa yerlardan hatlatdi [312].

[*semritti* – semirtirdi] *er atin semritti* – u oti va boshqa hayvonlarni semirtirdi (*semritür, semritmäk*) [312].

[*beklättim* (beklattim)] *men at beklättim* – men ot va boshqa hayvonlarni saqlashga buyurdim (o'g'uzcha) (*beklätür-men, beklätmäk*) [315].

[*terlätti* – terlatdi] *ol atin terlätti* – u otini terlatdi [315].

[*türlätti* (terlätti?) (terlatti?)] *ol atiğ türlätti (terlätti?)* – u otini qashlag'ich bilan qashlatdi (*türlätür, türlätmäk*) [315].

[*tağlattı* (tag'latti) – dog'latdi] *ol atin tağlattı* – u otini tamg'a

urib dog’latdi (*tağlatur, tağlatmaq*). Forslar bu so’zni turklardan olib, *dağ* (mollarga urilgan belgi) deydilar. Ular qal’a otini ham turklardan olib, diz deydilar. Turkcha *tiz yer* – “baland joy” demakdir [316].

[*qığlattı* (qig’latti) – tezaklatdi] *ol atin qığlattı* – u otini tezaklattı (*qığlatur, qığlatmaq*) [317].

[*kemlätti* (kemlatti) – mazasini qochirdi] *bu ot atığ kemlätti* – bu o’t ot va boshqa hayvonlarning mazasini qochirdi, tabzini qochirdi (*kemlätür, kemlätmäk*) [317].

[*čermätti* (chermatti) – tugdi] *alp er atin čermätti* – alp er otining dumini ipak bilan o’rdirdi. Otning dumini ipak bilan o’rish botirlik belgisidir. Fatila-fatila qilib o’rilgan, tugilgan har qanday narsaga ham shu so’z qo’llanadi. Chunonchi, qamchin uchuni qayish bilan o’rib to’qish kabi (*čermätür, čermätmäk*) [317].

Atoqli otlar

“Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’oti-t-turk” asari qoraxoniylar davri tilining noyob namunasi hisoblanadi. Asar matni qomusiy xarakterga ega. Lug’at XI asrgacha bo’lgan hamda shu davrga oid til, adabiyot, tibbiyot, tarix, geografiya, zoologiya, etnografiya, hunarmandchilik, astronomiya haqidagi ma’lumotlarni qamrab olgan [Холманова 2018, 87]. “DLT”da ot bilan bog’liq holda tilga olingan 2 atoqli ot mavjud:

Atluq (Atluq) – Tarāz [Avliyoota] yaqinidagi bir shahar oti [52].

Toquş (to’qush) – “jang” so’zi izohi uchun keltirilgan to’rtlikda *O’tar* ismi uchraydi. (Shoir) shunday degan:

*Toqiş ičrä uruštım,
Uluğ birlä qarištım,
Töküz atin yarištım,
Aydım emdi, al Ötär.*

Aytmoqdaki: Jangda jamoaning kattasi bilan qashqa otda urushdim. Unga o’q otdim va unga: “Mendan buni ol, ey O’tar, dedim [Jangda (jamo) ulug’i bilan urushdim. Qashqa otda jang qildim. O’targa “buni ol”, deb o’q otdim]. *Ötär* – kishi oti [148].

Turdosh otlar

oğur (og’ur) – badal, evaz; o’rinma-o’rin, boshma-bosh; *atqa oğur aldım* – ot evaziga (boshma-bosh) oldim (o’g’uzcha) [35].

ötki (o’tki) – evaz, badal (chigilcha); *bu atqa ötki* berdim – bu otning evazini, badalini berdim, demakdir [65].

qamuq (qamuq) – ot tezagi, bu soʻz shungagina xos [154].

tezäk (tezak) – ot tezagi. Maqolda (shunday kelgan): *Tezäk qarda yatmas, eðgü esiz qatmas*. Maʼnosi: “Tezak (oʻzining issiqligidan) qorda yotmas [qorni eritib yuboradi], (shunga oʻxshash) yomon ham yaxshi bilan qotishmaydi, aralashmaydi” [155].

sürüg (surug) har qanday hayvon toʻdasi, suruv; *bir sürüg qoy* – bir suruv qoʻy va boshqa suruvlar.

(Shoir) shunday degan:

*Ügür sürüg qoy, teway, yundi bilä,
Yumurtlayu erkänin sütin sağar.*

Aytmoqdaki: Bir suruv qoʻy va tuyalari hamda otlari boʻlgan kishi ularni sogʻish uchun toʻplaydi va foydalanadi [156].

köçüg (koʻchug) – ot, tuya orqasiga mingashgan kishi [157].

tasal (tasal) – chavgon oʻyini maydonida chegarani belgilab chizilgan chiziq. Bu *tasal* soʻzining buzilgani (yaʼni tovushlar oʻrin almashgani)dir... [158].

toqum (toʻqum) – soʻyilgan hayvon. Koʻpincha, soʻyiladigan otga aytiladi [159].

čögän (choʻgan) – chavgon [161].

tuşağ (tushagʻ) – tushov, eshak va otning (oldingi ikki) oyogʻini bogʻlash, tushovlash [165].

at suwğarğučı – ot sugʻoruvchi... [222].

at sürgüçi – ot haydovchi, chopuvchi [223].

Bu bobda tarkibida harfi illat boʻlmagan feʼllarning ishlovchi shakli *bitig bititgüçi* (xat bituvchi), *at közätgüçi* (ot kuzatuvchi, otboqar) gaplaridagi *bititgüçi*, *közätgüçi* shakllarida boʻladi.

Oʻgʻuz va qipchoqlarda bu shakl *bititgüçi*, *közätgüçi* shaklida qoʻllanadi. Buning asli *közätgüçi* edi. Keyinchalik *tä* bilan *däl* singishgan... [308].

yariš (yarish) – poyga, ot poygasi; *ol at yarišti* – u otda poyga qildi [326].

Ot anjomlari nomlari

“DLT” lugʻat boʻlishdan tashqari, turkiy tillarga oid maʼlumotlar ham beradi, soʻzlar izohlangandan soʻng barqaror birikmalar, sheʼr va maqollardan misollar keltiriladi. Bu jihati bilan qomusiy ahamiyatga ega boʻlgan “DLT” turkiy til va madaniyat uchun muhim manbadir. Asardagi soʻz boyligi, mavzuviy xilma-xillik, batafsil izohlar, oʻrinli misollar turkiyshunoslik uchun qavatma-qavat qoʻyilgan, chuqurlashgan sayin yangi bilimlarni

yuzaga chiqaradigan qazilma maydonidir” [Bozok 2021,1]. Gippologik leksika tadqiqi ham bu fikrni tasdiqlaydi:

“Olti harfli bo’ladi: *kö müldürük* (otning ko’kragiga taqiladigan ziynat bezagi) va *qudurğun* (*quyushqon*) so’zlari kabi [20]; *ichlik* (ichlik) – egarning tagidan qo’yiladigan ichki to’qim [54]; *ömzük* (o’msuk) – egarning old va orqa taraflari. [55]; *adrim* (adrim) – egar ostiga ikki tarafdin qo’yilgan jazliq. U namatdan bo’ladi [55]; *üstäm* (ustam) – kamar, to’qa va egarning boshiga o’rnatish uchun oltin-kumushdan ishlangan ziynat. O’g’uzlar uni *säxt* deydilar [55]; *otğun* (o’tg’un) – egarning chap tomonidagi enli bir qayish; unga ayilning xalqasi o’tkazilib, tili bog’lanadi [56]; *örkän* (o’rkan) – qayish (o’g’uzcha) [56]; *edarlik* (edarlik) – ustiga egar qo’yilgan yog’och. So’z oxirida zaif *kaf* bilan aytilsa, “egar egasi” ma’nosini bildiradi [74]; *talas* – ot poygasida va chavgon o’yinida maydon qirg’og’iga tortiladigan arqon [147]; *čawıǵ* (chavig’) – qamchining uchi [150]; *tulun* (tulun) – ot yuganlarining o’ng va chap tomoni; ikki chekkasidagi (munchoq, tumor singari) narsalarga ham *tulun* deyiladi [161]; *kökän* (ko’kan) – buzoq va qo’zichoqlarning arqonlari hamda sog’iladigan biyalarning sog’ishda bog’lanadigan arqonlari [166]; *čiktän* (chiktan) – ot egari ustidan yopiladigan yopinchiq [173]; ... *četkän* (chetkan) – yugan bog’i, jilovi [176]; ... *tartıǵ* (tartig’) – egar qayishi [184]; *qışmaq* (qismaq) – uzangining ikki yonidagi ikkita qayish bog’ichi. Uzangi ikki qayish orasida turadi [188]; *munčuq* (munchuq) – ot bo’yniga taqiluvchi munchoq, qimmatli tosh, sher tirnog’i yoki tumor [189]; *mančuq* (manchuq) – egarga osiladigan narsalar; to’rva va boshqalar [189]; *terlik* (terlik) – jazliq. Egari ostidan qo’yiladigan namat [189]; *köpčük* (ko’pchuk) – ko’pchik, egarning ustiga kiygiziladigan yopqi [190]; *közlük* (ko’zluk) – ot dumidan to’qilib, ko’z og’riganda, shamollaganda va yorug’dan qamashganda ko’zga taqiladigan narsa [190]; [*kösruk* (ko’sruk)] *kösruk tušaǵ* – otni bog’lab qo’yadigan tushov, kishan [190]; *yip* (yip) – otlarni bog’lab qo’yiladigan uzun arqon. “Ip”ni ham *yip* deyiladi [324]; *yular* – otning yugani, no’xtasi. Maqolda (shunday kelgan): *Yund bašin yularlap kenlidi*. Ma’nosi: “Otning boshini qaynatgandan keyin yemoqchi bo’lsang, qochmasligi uchun unga avval no’xta solib bog’la, keyin uni yegin”. Bu masalni otdan foydalanish uchun oldin uni yaxshi saqlashga, bo’sh qo’ymaslikka undab aytiladi [326]; *yışıǵ* (yishig’) – qayishdan to’qilgan bog’, bo’yinturuq qayishi [327]; *yaliǵ* (yalig’) – egarning oldingi va orqa qoshlari. Ularni bir-biridan ayirib aniqlash uchun *öndünki yaliǵ* (old qosh), *kedinki yaliǵ* (orqa qosh) tarzida qo’llanadi [328]; *yapı* (yapi) – egar ustiga qo’yiladigan

yostiqlik, ko'rpacha (chigilcha) [330]; *yalu* – toylar bog'lanadigan arqon. Biylar sog'ilyotganda toylar tevaragida o'tlab turishi uchun arqonga bog'lanadi" [331].

Otlarning tana a'zolari nomlari

Otlarning tana a'zolari nomlari "DLT"dagi muhim ma'lumotlardan hisoblanadi. Koshg'ariy bunday so'zlarni izohlar ekan, xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan maqol va she'rlardan ham parchalar keltiradi:

"*Öš*(o'sh) – har qanday daraxt, shox, butoqning o'rtasi, o'zagi; *möñüz öši* – shox (mo'ngiz) o'rtasi; shuningdek, qush va otlarning dum suyaklariga yoki dum chiqadigan o'rinlariga ham *öš* deyiladi" [29].

"*uluq* (uluq) – ot kuragining old qismi. Maqolda shunday kelgan: *Uluq yağ'iri oğulqa qalir*. Ma'nosi: "Otning kuragidagi yag'ir bolalariga meros bo'lib qoladi". Chunki pay tomirlari u yerga to'plangani uchun tez tuzalmaydi" [40].

"*keriš* (kerish) – otning yelkasi, yag'rini. Maqolda (shunday kelgan): *Keriš yağ'iri oğulqa qalir*. Ma'nosi: "Ot kiftining yag'iri o'g'liga meros qoladi, chunki kift bo'g'inlar to'planadigan joy bo'lib, u yerdagi yag'ir tezda tuzalmaydi". Bu bilan (unday) yag'irdan saqlanishga buyuriladi" [149].

"*qudruq* (qudruq) – barcha hayvonlarning quyrug'i, dumi; *at qudruqi* – otning quyrug'i. (Shoir) shunday degan:

*Qudruq qatiğ tügdümüz,
Təñrig öküš ögdümüz,
Kemšip atiğ tegdimiz,
Aldap yana qaçtımız.*

Aytmoqdaki: Otlar quyrug'ini qattiq qilib tugdik, Tangriga ko'p hamd o'qidik, ya'ni kofirlarga hujum qilishda takbir o'qidik. Uzangiga qattiq bosib hujum qildik. Orqamizdan ergashinglar deb, ularni aldab, qochganga o'xshab chekindik" [187-188].

bürčäk (burchak) – kishining kokili; otning yoli [189].

yaliğ (yalig') – ot yoli. Bu so'zning bir tilda *yal* varianti ham bor. To'g'risi *yel* ko'rinishli shaklidir" [327].

yelin – baytal yelini. Bir tirnoqli hayvonlar yeliniga ham shu so'z qo'llanadi [330].

yayğ'uy – baytal emchaklarining uchi. Qipchoqlarning ba'zilari *yazğ'uy* deydilar [332].

Ot bilan bog’liq narsa-buyum nomlari

a:l – *al* to’q sariq rangdagi ipak kiyimlik, undan xon bayroqlari va amaldorlarning otlariga yopiladigan yopiq qilinadi. Shuning kabi to’q sariq rangga ham *a:l* deydilar [46].

izlik (izlik) – turkiy xalqlarning hayvon terisidan yasalgan chorig’i. Maqolda (shunday kelgan): Izlik bolsa, er uldīmas, ičlik bolsa, at yağrimas. Ma’nosi: “Choriq bo’lsa, kishining oyog’i og’rimaydi, ichlik (ichki to’qim) bo’lsa, ot yag’ir bo’lmaydi”. Bu maqol har ishning ketini o’ylashga undab aytiladi [54].

butiq (butiq) – otning oyoq terisi shilib olinib qilingan mesh. Unda qimiz va boshqalar saqlanadi [152].

topiq (to’piq) – chovgan bilan uriladigan koptok, to’p [153].

čaruq (charuq) – choriq. Maqolda (shunday kelgan): *Yađaq ati* – *čaruq, küči* – *azuq*. Ma’nosi: “Yayov(ning) oti – choriq, kuchi – oziq. Ya’ni, yayov kishining oti – uning chorig’i, kuch-quvvati – ovqatidir”. Bu maqol yo’lda oyoq chaqalanib va kishining o’zi zaiflashib qolmasligi uchun yuqoridagi ikki narsa kerakligi to’g’risida aytilgan [153].

qasuo (qasuo) – ot terisidan qilingan, sanochga o’xshash, sut va qimiz solinadigan narsa [154].

bečkäm (bechkam) – belgi, nishon. Botirlar urush kunlarida ipakli narsa yoki yovvoyi sigirning dumini jang belgisi tarzida taqib oladilar. O’g’uzlar uni *pärčäm* deydilar.

(Shoir) shunday degan:

*Bečkäm urup atlaqa,
Uyğurdaqi tatlaqa.
Oğri yawuz itlaqa,
Quşlar kibi uctumiz.*

Aytmoqdaki: Otlarga belgi taqib, Uyg’ur (eli)dagi tatlarga, ya’ni o’g’ri, muttaham itlarga qasd qildik. Qush uchgandek uchub, ularning ustiga yopirildik [191].

sipaour (sipaour) – yem to’rvasi. Bu so’zning asli *sip aquri*, ya’ni “ikki yoshga to’lgan otning yem yeydigan joyi, oxo’ri” demakdir [193].

Otlarning rang-tusini bildiruvchi so’zlar

“Devonu lug’ati-t-turk”da rang bildiruvchi leksemalar ko’p bo’lib, ular turli buyumlar, narsalar, hayvonlar, qushlar, o’simliklar, tabiat ashyolari rangi-belgisini, insonlarda uchraydigan kasalliklarni bildirib kelgan” [Холманова 2018, 90]. Turkiy tillarda otlarga xos rang-tusni ifodalovchi so’zlarning nihoyatda ko’p ekanligi

e'tiborni tortadi. Mahmud Koshg'ariy ana shunday so'zlar haqida ham ma'lumot beradi:

[*tūdaš* (tudash)] *tūdaš naŋ* – biri biriga o'xshash narsaga aytiladi. Asli “soch, qil” ma'nosidagi *tūdir*; *bu at ne tūlūg?* – bu ot qanday rangda?... [163]

Oq va qora ranglarning almashinuvidan hosil bo'lgan “chovkar” mazmunida kelgan *tarğil* so'zidagi *lām* ham shundaydir. Bu so'z *tarildi* fe'lidan yasalgan [19].

or at (o'r ot) – to'q qizil va sariq ranglar orasidagi ot [32].

Oy (o'y) *oy at* – qora ot [34].

uğur at (ug'ur at) – peshonasida oqi bor (qashqa) ot; bu so'z ham shaklan, ham mazmunan arabchaga mos; faqat bu so'zning bosh harfi arabchada fathali (a), turkchada zammali(u)dir [35].

a:q – oq. Har narsaning oqi (o'g'uzcha). Turkiy qabilalar chipor otga *a:q at* deydilar [45].

[*ala* (ala)] olacha rangli otga *ala at* deydilar [46].

ičtin, yilqi alasī taštīn. Ma'nosi: “Kishining olasi (buzuq fikri) ichida; yilqiniki tashida, sirtida”. Bu maqol dilidagi xiyonatni yashirib, yoqimli muomala qiluvchilarga nisbatan qo'llanadi [49].

tum qara at – tim qora ot, juda qora, tiniq qora ot; *tum toruğ at* – butunlay to'rig' ot [138].

[*töküz* (to'kuz)] *töküz at* – peshonasida tangadek oqi bo'lgan ot, qashqa ot [147].

toruğ (to'rug') – bir xil otlarga qo'llanuvchi so'z; bu oğlaning bir toruğqa aldım – bu o'g'lonni, ya'ni qul bolani bir to'riq otga alishdim. Bu so'z ba'zan istiora yo'sinida tuya va sigirga ham qo'llanadi [150].

[*toriğ/toruğ* (to'rig'/to'rug')] *toriğ/toruğ at* – to'riq ot [150].

[*qašğa* (qashg'a)] ... *qašğa at* – qashqa ot... [170].

[*čilgü* (chilgu)] *čilgü at* – to'q sariq ot [171].

čindan (chindan) – sandal daraxti; *čindan at* – jiyron ot, qizilgulrang ot [174]

[*bašğil* (bashg'il) – oq bosh] *bašğil yilqi* – boshi oq mollar [191].

[*bügrül* (bugrul)] *bügrül at* – ikki biqini oq ot...[191].

[*qizğul* (qizg'ul)] *qizğul at* – qizilidan oqi kuchli va qora jigar ranglari orasida bo'lgan bir rangli ot [191].

tegüzlük (teguzluk) – peshonasi oq, chavkar ot. Maqolda (shunday kelgan): *At tegüzlük ay bolmas*. Ma'nosi: “Ot (peshonasi) ning oqligi oydan tindirmaydi, oyning o'rnini bosmaydi”. Bu maqol katta bir ish o'rnida kichik ishni o'ylovchiga qarshi so'zlanadi [200].

Yağiz (yag’iz) – qizil bilan qora o’rtasidagi bir rang, qo’ng’ir rang. Yerning rangi shunga o’xshatilib, *yağiz yer* deyiladi [326]; *Yağiz at* – chavkar ot [326].

“Ot” komponentli maqollarda uchraydigan fitonimlar

aņduz (angduz) – rosan, yerdan qazib olinadigan o’simlik ildizi. Otlarning qorin og’rig’i kasaliga davo bo’ladi. Maqolda (shunday kelgan): *Aņduz bolsa, at ölmäs*. Ma’nosi: “Rosan o’ti yoningda bo’lsa, ot yo’lda qorin og’rig’idan o’lmaydi”. Ot og’rib qolgan taqdirda, u bilan davolash mumkin. Bu maqol safarga chiquvchilarni puxta hozirlanishga undab aytiladi [59].

arpa. Maqolda (shunday kelgan): *Arpasiz at ašumas, arqasiz alp čerig siyumas*. Ma’nosi: “Arpasiz ot qir osholmaydi, yordamchisiz yigit (bahodir) jangda yenga olmaydi”. Bu maqol ishda hamkorlikka chaqirish ma’nosida qo’llanadi [63].

“Devonu lug’oti-t-turk”da keltirilgan maqollar ham ajdodlarimizning uzoq yillik hayotiy tajribasidan kelib chiqqan, ularning yuksak aql-u zakovatidan dalolat beruvchi yaxlit xulosalardir. Har bir maqolning yaratilishida ibratli bir voqea asos bo’lgan va bu ajdodlarimiz tomonidan fikr va mazmuni keng qamrovli, hajm jihatdan esa lo’nda, aniq, ravon, sodda shaklda xulosalangan” [Мирзаалиев 2020, 34].

Gippologiyaga oid tibbiy terminlar

etilgän (etilgan) – otlarda bo’ladigan bez kasalligi. U yorilib tuzaladi. Forscha *xunām* yoki *xunnām* deb ataladi [77].

kem – kasallik; *at kemländi* – ot va boshqa hayvonlar kasallandi [138].

čildäk (childak) – otning ko’kragiga chiqadigan bir yara. U yiringlaydi, fasod bog’laydi, so’ng uni dog’lab tuzatadilar [189].

yağir – yag’ir. Yirik uy hayvonlari (ot, xachir, eshak)ning yarasi; *yağirliğ at* – yag’irli, yag’ir yarasi bor ot [326].

Taqlid so’zlar

[*kürt- kürt* (kurt-kurt) – ot yem yeganda chiqadigan ovoz] *at arpani kürt-kürt yedi* – ot arpani kurt-kurt yedi...[140].

[*taqir-taqir* (taqir-taqir)] *at ađaqi taqir-taqir etti* – otning oyog’i taqir-taqir ovoz chiqardi. (Xuddi) shu ma’noda *tikir-tikir etti* (ot tikir-tikir qilib yurdi) deb ham qo’llaydilar [146].

Xulosa

Mahmud Koshg'ariyning "*Devonu lug'oti-t-turk*" asari XI asr turkiy xalqlarining tili, madaniyati va ijtimoiy hayotiga oid muhim ma'lumotlarni o'zida jamlagan bebaho manbadir. Asar leksikografiya lug'at bo'lishi bilan birga, unda turkiy xalqlarning qadimiy dunyoqarashi, etnik qadriyatlarini, urf-odatlarini, hayot tarzi va madaniy tafakkuri ham o'z ifodasini topgan. Lug'at o'z davrining madaniy kodlarini til vositasida ifodalagan muhim yozma yodgorlikdir. Unda saqlanib qolgan leksik birliklar olamning lisoniy manzarasi, xalq tafakkuridagi asosiy tushunchalar, tasavvur va qadriyatlar tizimini yoritadi. Ot bilan bog'liq so'z boyligi turkiy xalqlarning tarixiy-madaniy tajribasi, estetik didi va ijtimoiy ongini ifodalovchi muhim sath sifatida ham ahamiyatlidir.

"Devonu lug'oti-t-turk"da keltirilgan maqollar **ot** obrazining ijtimoiy, estetik va madaniy ahamiyatini yorituvchi muhim paremiologik birliklar hisoblanadi. Ushbu maqollar xalq tafakkurida shakllangan **ot** konseptining ko'p qirrali semantik qatlamlarini ochib beradi, inson va tabiat, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarning qadimiy ildizlarini aks ettiradi, ramziy-madaniy tafakkur ifodasini tahlil qilish imkonini beradi. Ular faqat lingvomadaniy jihatdan emas, balki etnolingvistik va kognitiv nuqtayi nazardan ham turkiy xalqlarning madaniy xotirasi, milliy o'zligi va qadriyatlar tizimini anglashda muhim manba hisoblanadi.

Adabiyotlar

- Aliyev, Kamran. 2018. *Açık Kitap: Dede Korkut*. İstanbul: Ötüken.
- Arat, Reşid Rahmeti. 1965. *Eski Türk Şiiri*. Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları.
- Atalay, Besim. 1998. *Divanü Lûgat-it-Türk*. Tercümesi-Dizini I-II-III-IV. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
- Atsız, Hüseyin Nihal. 1943. *Türk Edebiyatı Tarihi*. İstanbul: Aylık Kurt Yayınları.
- Besli, Ertan. 2010. *Eski ve Orta Türkçe Hayvan İsimlerinin Etimolojisi*. Yayınlanmamış Doktora Tezi. İstanbul.
- Bozok, Emrah. 2021. *Dîvânu Lugâti't-Türk'te Tekrarlı Atasözleri*. Gazi Kitabevi Tic.Ltd.Şti. Ankara.
- Дадабоев, Ҳамидулла. 2017 (а). "Девону луғотит турк"нинг тил хусусиятлари. Тошкент: ТДШИ.
- Дадабоев, Ҳамидулла. 2017 (б). "Девону луғотит турк" лексикасига оид хусусиятлар". *АДУ Илмий хабарномаси* №2: 68-75.
- Девону луғотит-турк*. Индекс-луғат. 1967. Ғ. Абдурахмонов ва С. Муталлибовлар иштироки ва таҳрири остида. Тошкент: Фан.
- Durukoğlu, Gökçen. 2020. *Dîvânu Lugâti't-Türk'e Göre 11. Yüzyıl Türk Dili*

- Grameri. Elaziğ. Yayınlanmamış Doktora Tezi.*
- Ercilasun, Ahmet Bican. 2020. *Dîvânu Lugâti’t-Türk'teki Şiirler ve Atasözleri*. İstanbul: Bilge Kültür Sanat.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1960-1963. *Девону луғотит-турк*. Уч жилдлик. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: С.Муталлибов. Тошкент: Фан.
- Кошғарий, Маҳмуд. 2016. *Туркий сўзлар девони (Девону луғоти-т-турк)*. Нашрга тайёрловчилар: А. Рустамов, Ҳ. Болтабоев. Тошкент: Mumtoz soʻz.
- Кошғарий, Маҳмуд. 2017. *Девону луғати-т-турк [Туркий сўзлар девони]*. Нашрга тайёрловчи: Қ.Содиқов. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМУ.
- Madvaliyev Abdurahob, Mahkamov Neʼmat, Mirahmedova Zuhra, Saidnoʻmonov Akmalxoʻja. 2023. *Xalqaro terminelement-larning izohli-illyustrativ lugʻati*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Мирзаалиев, Иқбол. 2020. *Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси (“Девону луғати-т-турк” материали мисолида)* Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. Тошкент.
- Раҳматуллаев Шавкат, Қодиров Муҳаммаджон. 1998. *Ўзбек тилининг қисқа этимологик луғати*. Иккинчи қисм. Тошкент: Университет.
- Рустамий, Салима. 2006. *“Девону луғотит-турк”даги лингвистик атамалар*. Тошкент: ТДШИ.
- Sirojiddinov, Shuhrat, Xolmanova, Zulxumor. 2024. “Devonu lug’otit turk”ning adabiy-maʼrifiy qiymati”. *Turkologik tadqiqotlar* 2(4): 27-34.
- Холманова, Зулхумор. 2018. “Девону луғоти-т-турк”даги ранг билдирувчи лексемалар семантикаси”. *“Девону луғоти-т-турк” – туркий халқларнинг ноёб ёзма ёдгорлиги*, 87-91. Тошкент.
- Худойбердиев, Жўра. 2010. *Маҳмуд Кошғарий ҳаёти ва “Девону луғотит турк” асарининг ўрганилиши*. Тошкент.

Vocabulary and proverbs related to horses in the “Dīwān Lughāt al-Turk”

Sabohat Bozorova¹

Abstract

The language reflects all elements of cultural identity, encompassing people's lifestyle, worldview, spiritual values, beliefs, and their attitudes toward certain phenomena. Throughout history, animals have played a significant role in human life. Therefore, in almost all languages, words related to animals are actively used. When examining the vocabulary richness of Turkic languages, it is evident that there is a large number of linguistic units related to animals. Mahmud al-Kashgari's *Dīwān Lughāt al-Turk* not only captures the way of life, customs, and culture of Turkic peoples but also contains a wealth of information about social life, including numerous references to animals of great importance to Turkic societies — particularly horses. In addition, some proverbs containing the component “horse” are provided and explained in the commentary of certain words. This article discusses the words and proverbs related to the horse found in *Dīwān Lughāt al-Turk*.

People's lifestyle, worldview, spiritual values, beliefs, and attitude to certain events are reflected in language, which encompasses all elements of cultural identity. Throughout history, animals have played a very important role in human life. Therefore, words related to animals are actively used in almost all languages.

Key words: *Mahmud al-Kashgari, Dīwān Lughāt al-Turk, Turkic language, vocabulary, proverb, animals, horse.*

References

- Aliyev, Kamran. 2018. *Açık Kitap: Dede Korkut*. İstanbul: Ötüken.
- Arat, Reşid Rahmeti. 1965. *Eski Türk Şiiri*. Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları.
- Atalay, Besim. 1998. *Divanü Lûgat-it-Türk*. Tercümesi-Dizini I-II-III-IV. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
- Atsız, Hüseyin Nihal. 1943. *Türk Edebiyatı Tarihi*. İstanbul: Aylık Kurt Yayınları.

¹ Sabohat R. Bozorova – Senior lecturer at Tashkent state university of Uzbek language and Literature named after Alisher Navai.

E-mail: sabohatbozorova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-2992-1789

For citation: Bozorova, S. 2025. “Vocabulary and proverbs related to horses in the “Dīwān Lughāt al-Turk”. *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 36 – 59.

- Besli, Ertan. 2010. *Eski ve Orta Türkçe Hayvan İsimlerinin Etimolojisi*. Yayınlanmamış Doktora Tezi. İstanbul.
- Bozok, Emrah. 2021. *Dîvânu Lugâti’t-Türk’te Tekrarlı Atasözleri*. Gazi Kitabevi Tic.Ltd.Şti. Ankara.
- Dadaboev, Hamidulla. 2017 (a). *“Devonu lug’otit turk”ning til xususiyatlari*. Toshkent: TDSHI.
- Dadaboev, Hamidulla. 2017 (b). *“Devonu lug’otit turk” leksikasiga oid xususiyatlar*. *ADU Ilmiy xabarnomasi* №2: 68-75.
- Devonu lug’otit-turk*. Indeks-lug’at. 1967. G’. Abdurahmonov va S. Mutallibovlar ishtiroki va tahriri ostida. Toshkent: Fan.
- Durukoğlu, Gökçen. 2020. *Dîvânu Lugâti’t-Türk’e Göre 11. Yüzyıl Türk Dili Grameri*. Elazığ. Yayınlanmamış Doktora Tezi.
- Ercilasun, Ahmet Bican. 2020. *Dîvânu Lugâti’t-Türk’teki Şiirler ve Atasözleri*. İstanbul: Bilge Kültür Sanat.
- Koshg’ariy, Mahmud. 1960-1963. *Devonu lug’otit-turk*. Uch jildlik. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: S.Mutallibov. Toshkent: Fan.
- Koshg’ariy, Mahmud. 2016. *Turkiy so’zlar devoni (Devonu lug’oti-t-turk)*. Nashrga tayyorlovchilar: A. Rustamov, H. Boltaboev. Toshkent: Mumtoz so’z.
- Koshg’ariy, Mahmud. 2017. *Devonu lug’ati-t-turk [Turkiy so’zlar devoni]*. Nashrga tayyorlovchi: Q.Sodiqov. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi NMU.
- Madvaliyev Abduvahob, Mahkamov Ne’mat, Mirahmedova Zuhra, Saidno’monov Akmalxo’ja. 2023. *Xalqaro terminelarning izohli-illyustrativ lug’ati*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Mirzaaliev, Iqbol. 2020. *Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi* (“Devonu lug’ati-t-turk” materialini misolida) Filol. fan.b.fals.dok. ...diss. Toshkent.
- Rahmatullaev Shavkat, Qodirov Muhammadjon. 1998. *O’zbek tilining qisqa etimologik lug’ati*. Ikkinchi qism. Toshkent: Universitet.
- Rustamiy, Salima. 2006. *“Devonu lug’otit-turk”dagi lingvistik atamalar*. Toshkent: TDSHI.
- Sirojiddinov, Shuhrat, Xolmanova, Zulxumor. 2024. *“Devonu lug’otit turk”ning adabiy-ma’rifiy qiymati*. *Turkologik tadqiqotlar* 2(4): 27-34.
- Xolmanova, Zulxumor. 2018. *“Devonu lug’oti-t-turk”dagi rang bildiruvchi leksemalar semantikasi*. *“Devonu lug’oti-t-turk” – turkiy xalqlarning noyob yozma yodgorligi*, 87-91. Toshkent.
- Xudoyberdiev, Jo’ra. 2010. *Mahmud Koshg’ariy hayoti va “Devonu lug’otit turk” asarining o’rganilishi*. Toshkent.